

## O'ZBEKISTONDA FINLYANDIYACHA METODLAR YORDAMIDA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

*TDPU tarix fakulteti 4-bosqich talabasi  
Xudoybergenova Saodat*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda Finlyandiyacha metodlar yordamida ta'lismizini takomillashtirish istiqbollari Finlyandiya ta'lismiz sifatini boshqarish tizimlarini tahlil qilib, ularni yutuq tomonlarini o'rganish, rivojlangan mamlakatni ta'lismizagi zamonaviy metodlarni respublikamiz minitalitetidan kelib chiqib tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** ta'lismiz, metodlar, modernizasiya, PISA tizimi, savodxonlik, test, regimentasiya, tizim.

Hozirgi ilm-fan rivojlangan asrda yashar ekanmiz, bizning butun bir e'tiborimizda bиринчи о'rinda ta'lismiz sifatini yaxshilash bilan bиргаликда O'zbekiston ta'lismiziga chet el davlatlarining zamonaviy metodlarni joriy qilish kundan kunga jadallahib bormoqda.

Xozirda mamlakatimizda ta'limga qaratilayotgan xarajatlarning ko'p qismini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirmoqda. Asta-sekinlik bilan mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning taraqqiy etishi, aholi daromadlarining oshishi va ta'lismiz inson hayotidagi o'rnining oshib borishi mamlakatda ham asta-sekinlik bilan davr talablariga javob bera oladigan davlat ta'lismiz muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lismiz muassasalari ham tashkil topib boradi va bormoqda. Bu o'z navbatida, bevosita raqobatni kuchayishiga, davlatning talim tizimida ijobjiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ta'lismizini asosiy natijasi, ta'lismiz oluvchilaning bilim va ijodiyligi faoliyatini amalga oshirish uchun o'quv jarayonida zamonaviy o'quv texnologiyalaridan foydalanib ta'lismiz sifatini yanada samaraliroq ortirilishidir. Asosiy e'tibor talabalarni mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish mexanizmlariga qaratilishi lozim. Mustaqil ta'lismiz jarayonida bilimlar kengayadi, chuqurlashadi, mukammallashadi, turli sharoitlarda ulardan foydalanish imkonini beruvchi universallik xarakteriga ega bo'ladi.<sup>[5,6]</sup> Bizga kirib kelgan kredit-modul tizimida ham aynan, mustaqil ish qismiga ko'p soat ajratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa talabani o'z ustida ko'proq ishlashtirishga yordam beradi. Xar tomonlama yetuk shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashda muxim o'rin tutuvchi ta'lismiziga ilg'or g'oyalarni tadbiq etish va shu soxada uning mazmunini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat xisoblanadi. O'zbekiston ta'lismiz to'laligicha taxlil etilib, uni xozirgi strukturasi va olib borilayotgan modernizasiya yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasida uzliksiz ta'lismizini tashkil etish va uning tashkiliy

bo'linmalarini belgilash uchun "Ta'lim to'g'risidagi qonun" bir necha bor tahrirdan chiqdi .Ta'lim to'g'risidagi qonunda uziksiz ta'limni barcha tamoyillari belgilab berilgan.[3]Dunyo miqyosida rivojlanish Respublikamiz ta'lim tizimini tashkillashtirish va uni boshqarish tamoillari modernizasiyalashni talab etmoqda. Shuning uchun xam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldaggi PF-5763-son 'Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida'gi Farmoni e'lon qilindi. [2] Farmonda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagи muassasalarning sifatli faoliyat yuritishini taminlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish maqsadida, shuningdek 2017 -2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga muvofiq katta o'zgarishlar kiritildi. [1]Joriy yilning 6 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta,,lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi.[4]Farmonda maktab ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini, xususan Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifasi yuklatildi. Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlyandiyani misol qilib ko'rsatilgani bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'limsifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o'quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan.Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA -The Programme for International Student Assessment) shunday tadqiqot dasturlarining eng keng tarqalgani hisoblanadi. PISAning o'ziga xos xususiyati shundaki, u sof bilimni emas, balki turli sohalarda savodxonlikni baholaydi. Savodxonlik -"o'quvchilarning asosiy mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati, turli vaziyatlarda muammolarni aniqlash, talqin qilish va hal qilishda samarali tahlil qilish, mulohaza yuritish va muloqot qilish qobiliyati" sifatida izohlanadi. PISA dasturi doirasida har 3 yilda takrorlanuvchi skillarda o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish fanlari savodxonligi baholanadi.PISA dasturi 2000 yilda tashkil etilgandan buyon Finlyandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarining e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda.Finlyandiya ta'lim tizimi PISA tadqiqotlari natijalari bo'yicha uzoq davrda eng yaxshi natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi.Finlyandiyaning ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan:1. O'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish. 2. jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish 3. butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni

ta'minlash.Finlyandiyaning intellektual va ta'lim sohasidagi islohotlari fin ta'lim tizimini o'zgartirib yuborib, uni dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biriga aylantira oldi. Fin ta'lim tizimi bugun dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi tizimlardan farq qiladi. Jumladan,-Finlandiya tizimi standart sinovlarni rag'batlantirmaydi;-Finlyandiyada odatiy fikrlash amaliyoti va o'qitishning yaxlit muhitiga e'tibor qaratiladi .Ko'pgina maktab tizimlari test natijalarini oshirish, matematika va tabiy fanlardan bilimlarni oshirishga e'tibor qaratadilar. Ular uchun talabaning yakuniy imtixonlarda qayd etadigan natijalari muhimroq. Ko'p yillar oldin fin maktablari ham shunday edi. Undan keyin jiddiy islohotlar davri boshlandi. Finlandiyada a'lo baholarga ega bo'lish katta ahamiyat kasb etmaydi. Buning o'rniغا ular maktab muhitini yanada adolatli tashkil qilishga harakat qilishdi.O'tgan asrning 80-yillardan beri Finlyandiya o'qituvchilari ushbu masalalalarga ustuvor ahamiyat qaratib kelmoqdalar:-Ta'lim, ijtimoiy tengsizlikni muvozanatlash vositasi bo'lishi kerak.-Barcha talabalar maktabda bepul ovqatlanishadi.-Sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish qulay bo'lmosg'i lozim.-Maktabda o'ziga xos psixologik maslahatlar berib boriladi.Finlandiyada o'quvchilar yetti yoshdan maktabga boradi. Majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, undan keyin o'qishni davom ettirish yo ettirmaslikni bolaning o'zi tanlaydi.Bu narsa bolalarga o'zini muayyan fikrlar qafasiga solmasdan, hayotga tayyorlashni osonlashtiradi. Finlandiyada qarorni o'quvchining o'ziga qo'yib berishadi, bu esa har tomonlama samarali usul hisoblanadi. Ya'ni o'quvchi xayotda o'zini fikriga ega bo'lishni va qaror qabul qilishni o'rganadi.Odatda o'quvchilar hayotda nimagadir erishish uchun o'qishni kollejlarda davom ettirishlari, imtixonlardan o,,tishlari, murakkab bir tizim ichida bo'lishlari kerak. Bu esa ularni psixologik qafasga solib qo'yadi. Finlyandiyada esa ushbu muammo boshqacharoq hal qilinadi. Maktab bitiruvchilariga o'z hayotlarini davom ettirish uchun kollejlar bilan birga bir xil foydali bo'lgan boshqa imkoniyatlar taklif qilinadi. Kasb hunar kollejlari xam xuddi shu jumladandir. Bu fin o'quvchilariga o'z iqtidorini istaganicha yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati fin xalqining qadriyatlari va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Finlyandiya muvaffaqiyatidan saboq olish, ta'lim tizimini chuqur o'rgangan holda undagi muhim jihatlarni o'zimizga moslashtirgan holda foydalanishimiz zarur.Ushbu ma,,lumotlarga asoslanib, Prezidentimizning qaroriga asosan Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ijobjiy tajribasini, shu jumladan o'quv dasturlari, darsliklari, o'qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi joyiga borgan holda o'rganish belgilangan.

**ADABIYOTLAR RO'YHATI.**

1. 2017 —2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.O'zR Prezidentining 07.02.2017 y. PF-4947-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldaggi PF-5763-son 'Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida'gi Farmoni.
3. Ta'lim to'g'risidagi qonun. Yangi taxriri 23.09.2020 y.No O'RQ 6374.Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan
4. Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 y. PQ-4884-son 'Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida'gi Qarori
6. Mamirovich I.Sh., Mukaramovich A.S. (2020). Mustaqil ta'limini tashkil etishning shakllari va nazorat qilish omillari.'Differensial tenglamalar va matematikaning turdosh bo'limlari zamonaviy muammolari'. Xalqaro ilmiy konferensiya tezislari to'plami Farg'ona, 290-292.
7. Toshboltayev Faxriddin O'rjinboyevich. (2022) Bo'llajak o,qituvchilarda metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati. Science and innovation international scientific journal 539-546.